



## TA'LIM KLASTERI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI XUSUSIDA

Vafoyeva Gulruh Bahodir qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti maktab menejmenti 20/1 – guruh talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim klasteri asosida bo'lajak o'qituvchilarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart- sharoitlari masalalari muxokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya ta'lim vositalari, ta'limda texnologik yondoshuv, klaster, o'quv-uslubiy materiallar, o'quv-tarbiya ishlari, loyihalash, ta'lim usuli, pedagogik shart- sharoit.

Ta'lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari ham mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas. Shunday ekan biz o'qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, bo'lajak o'qituvchilarning fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bunday hollarda o'qituvchi o'z kasbiga puxta yondashgan holda darslarni tashkil etsa bu o'qituvchi hurmat-e'tiborda bo'ladi. Bugungi kunda axborot ko'lami juda kengayib ketdi. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamasa avvalgi o'rgangan bilimlari yetarli bo'lmay qoladi. Dars mavzulari kundalik hayotdagi keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa dars esda qolishiga erishilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib, fanlararo bog'lagan holda ekologik-gigiyenik bilimlar bilan darsni to'ldirishi zarur.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bo'lajak o'qituvchining faoliyatiga belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan loyiha tushuniladi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ta'lim vositalari -o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitishni samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Ta'lim berishning texnik vositalari -o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi, bo'lajak o'qituvchilarga o'quv materialini tushunishlariga va eslab qolishlariga imkon beradi. Bunday vositalarga quyidagilar misol bo'lishi mumkin: diaproektor, grafoproektor,



doska-bloknok, doska-stend; Yordamchi ta'lim vositalari - grafiklar, chizmalar, na'munalar, tarqatma materiallar va boshqalar.

O'quv-uslubiy materiallar – o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi (ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi, matnlar). Bo'lajak o'qituvchilarni o'quv, bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har xil turdagi ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq:

1. Maqsadni belgilash;
2. Asosiy bilim manbaiga;
3. Ta'lim usuliga;
4. O'quv materialining yangiligi va murakkabligiga;
5. O'quvchilarni o'quv imkoniyatlariga.

**Ta'limga texnologik yondoshuv.** Tarbiyalash texnologiyasi - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarni hukumat siyosatiga muvofiq tarbiyalash texnologiyalarini egallashi dolzarbdir. Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi - har tomonlama yondashuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda bo'lajak o'qituvchilar axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Pedagogik texnologiyada klaster puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi davrda estetik tarbiya klasterining ijtimoiy-ma'naviy zaruriyatini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

Bo'lajak o'qituvchilarda bunday estetik g'oyalar va ko'rinishlarning salbiy oqibatlarini tushuntirib beradigan ta'limiy asosni mustahkamlashda estetik tarbiya klasteri yaqin ko'makchi bo'lib xizmat qiladi.



“Klaster” nazariyasining asosi bo‘lib, Alfred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan “Iqtisodiyot prinsiplari” nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq sohalarning alohida hududlarda uyg‘unlashishi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Uning ilmiy xulosalari bo‘yicha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi sub’ektlarni hududiy uyg‘unlashuvi:

- malakaviy mehnat resurslarining borligi;
- ta‘minotchi va qo‘shimcha sohalarning o‘sishi;
- har-xil firmalarni ishlab chiqarish jarayonining turli bo‘g‘inlariga ixtisoslashuvining mavjudligiga asoslanganligidir.

Birinchi marta ta‘lim klasteri atamasi Maykl Evgeniy Porter tomonidan ilmiy qo‘llanishga kiritildi. U ilmiy ishlarida klasterga shunday ta‘rif beradi: "klaster - bu bir-biriga bog‘langan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar, tegishli sohalardagi firmalar, shuningdek, ma‘lum sohalardagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, raqobatlashadigan, lekin shu bilan birga birgalikdagi ishlarni olib boradigan tashkilotlardir. Maykl Porter nazariyasiga ko‘ra, klaster geografik jihatdan qo‘shni bo‘lgan o‘zaro bog‘liq kompaniyalar (yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) va muayyan sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta‘lim muassasalari, davlat organlari, infratuzilma korxonalari) guruhidir deb izoh beradi. Buning uchun nafaqat shu sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o‘rnatish texnikasini egallash, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko‘rib borish lozim.

Kompetentlikni baholash mezonlari

Kompetentlikning tarkibiy qismlari Kompetentlikni baholash mezonlari

1. Tayyorgarlik Maxsus xususiyatlar, axborotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari, o‘rganish qobiliyati, tipologik xususiyatlar va boshqalar
2. Bilim Kompetentlik, stereotiplar, bilim, kompetentlik bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rganishning ustunligi haqidagi tasavvurning mavjudligi
3. Tajriba Kompetentlikka yaqin yoki aynan unga mos keladigan masala va topshiriqlarni bajarish
4. Munosabat Kompetentlikni amalga oshirish yoki faoliyat kompetentligi bilan bog‘liq holda o‘ziga va boshqalarga nisbatan munosabatlarning shakllanishi
5. Muntazamlilik Kompetentlikka bog‘liq amallarga «turtki»larni nazorat qilish qobiliyati, matonat, qat‘iyat, sabrlilik, kompetentlikni amalga oshirish bilan bog‘liq maqsadga erishishdagi to‘siqlarni zabt etishga tayyorgarlik

Kompetentlikni namoyish qilishga tayyorgarlik darajasini quyidagi mezonlar bo‘yicha aniqlash mumkin: o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini namoyon etish g‘oyasi, kasbiy yo‘l tanlash, turmush qurish, farzandli bo‘lishga nisbatan qaror qabul qila olishga tayyorgarlik, o‘z hayotiga javob berishga tayyorlik, hayot yo‘lini mustaqil tanlash, kasb sohasida ko‘nikishlar hosil qilishga tayyorlik va boshqalar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.
2. Rasulov T.H., Rasulova Z.D. (2019). Organizing educational activities based on interactive methods on mathematics subject. Journal of Global Research in Mathematical Archives, 6:10, pp. 43-45.
3. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Rasulov.A.N., Vafojeva G.B., Begmatova L.SH., Abduhakimova N.X., Hozirgi kunda maktablarda zamonaviy ta'lim klassteri sharoitida iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitish davr talabi., „Образование и Наука В XXI Веке”